

O‘ZBEKISTON SHAROF RASHIDOV TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN ULKAN
XIZMATI

Xudoybergenova Patma Tashpulatovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Alijanov Mirabbos

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Sharof Rashidovning O‘zbekiston siyosiy tarixidagi o‘rni, davlat boshqaruvidagi faoliyati va respublika халқимиз аётида qo‘shgan hissasi adabiyotlar sharxi asosida tahlil qilinadi. Unda Rashidovning siyosiy yetakchilik fazilatları, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirgan islohotları, xalqaro nufuzni oshirishga qaratilgan tashabbusları hamda mazkur faoliyatning hozirgi davrda qayta baholanishi ilmiy yondashuv bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sharof Rashidov, siyosiy faoliyat, O‘zbekiston tarixi, davlat boshqaruvi, iqtisodiy -ijtimoiy taraqqiyot, modernizatsiya

Kirish

Sharof Rashidovning hayoti va faoliyati haqida yozilgan har bir sahifa xalqimiz tarixida qanday ulug‘ insonlar yashab o‘tganini yana bir bor his qildirdi. Ko‘plab manbalarda uning fidoyiligi, halolligi, qat‘iyati, xalqiga sadoqati juda samimiy tarzda tasvirlangan bo‘lib, bu fazilatlar biz yoshlar uchun chinakam hayotiy o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi. Rashidov haqida o‘qigan sari, insonning o‘z Vataniga mehr bilan xizmat qilsa, qanday ulkan natijalarga erisha olishini yanada chuqurroq anglayman. Rashidovning rahbarlik fazilatları – biz uchun maktab

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 27 mart kuni «Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarorga imzo chekdi. Hujjat respublikani juda murakkab va og‘ir yillarda boshqarib, mamlakat taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi

Sharof Rashidovning yorqin xotirasini ulug'lash hamda tavalludining 100 yilligini munosib nishonlash maqsadida qabul qilindi.

Adabiyotlarda Sharof Rashidov faqat siyosatchi emas, balki xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ygan rahbar sifatida tasvirlanadi. Uning nutqlari, yig'ilishlardagi chiqishlari va amaliy ishlari orasida bir umumiy ruh bor — xalqni sevish va unga xizmat qilish mas'uliyati, manbalarda keltirilishicha, u u har bir qarorni chuqur o'ylab, shoshilmasdan, doimo xalqning holatini, yashash sharoitini, ertangi kunini hisobga olgan holda qabul qilgan. Vunday mas'uliyatni ko'rib, rahbar uchun eng muhimi — lavozim emas, balki vijdon va halollik ekanini anglayman. **Bunyodkorlik va mehnatsevarlik — eng katta meros.**

Sh.Rashidov davri respublikaning iqtisodiy xayotda markazdan ma'muriy buyrukbozlik siyosatining olib borilishi, kancha kancha tazyiklarga karmasdan xalkimiz uchun kilgan mexnatlari alohida bosqich sifatida qayd etiladi. Afsuski, mustabid tuzum davrida Sharof Rashidov tirikligida qanchalik qadrlanishiga qaramasdan, bu dunyoni tark etgandan keyin xotirasiga nisbatan qilingan adolatsizliklar, tuhmatlar nafaqat u kishining, balki butun millatning sha'nini poymol qilish bilan barobar bo'ldi. O'zbekistonni murakkab sharoitda boshqargan Sharof Rashidov dunyodan ko'z yumgandan keyin o'zi umr bo'yi sadoqat bilan xizmat qilgan tuzum unga xiyonat qildi. Uning qabrini ko'chirdilar, nomini yomon otliqqa chiqardilar, oila a'zolarini yaqinlarini ta'qib qildilar. Sharof Rashidov davridagi yana bir murakkab vaziyat, bu 1966 yil 26 apreldagi Toshkent shahrida sodir bo'lgan zilzila bilan bog'liq. Ana shunday vaziyatda **Sharof Rashidov nafaqat O'zbekiston Respublikasini, balki butun sovetlar mamlakatini zilzila oqibatlarini bartaraf qilishga jalb qilishga erishgan.** Natijada qisqa muddatda paxsa uylar o'rniga Toshkent yangicha zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi. Darvoqe, zilzila oqibatlarini bartaraf qilish masalasi muhokama qilinayotgan vaqtda Moskvadan kelgan rahbarlar Sharof Rashidovning taklifini qabul qilmaydi. Shunda yana kkuchsiz yer silkinishi sodir bo'ladi. Ana shunda Sharof Rashidov "Ko'ryapsizlarmi biz qanday murakkab sharoitda faoliyat olib boryapmiz", deydi. Shundan so'ng ittifoq rahbari L.Brejnev taklifni qabul qiladi, bundan keksa avlod xabardor.

Sharof Rashidov nafaqat bir respublika, balki **global** miqyosda fikrlaydigan lider bo'lgan. Masalan, 1962 yildagi **Karib inqirozi** deb nom olgan **AQSh bilan Kuba o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf** qilishda Sharof Rashidovning hissasi ham beqiyos. Yoki uzoq yillar davom etgan **Hindiston bilan Pokiston o'rtasidagi urush holatini bartaraf** qilishda 1966 yildagi Toshkent deklaratsiyasi muhim rol o'ynagan. Umuman, Sharof Rashidov SSSR mamlakatining tashqi siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etib,

ko'plab delegatsiyalarga rahbarlik qilgan. Hatto o'sha mashhum 1983 yilda ham Sharof Rashidov Efiopiyaga rasmiy tashrif bilan safarga borgan edi. Melioratsiya ishlari, sanoatning kengayishi, yo'llar, inshootlar, madaniyat markazlari — bularning barchasi o'sha yillarning yorqin belgisi sanaladi. Muzeysga kiraverishda Shavkat Mirziyoevning "Hech shubha yo'qki, Sharof Rashidov nomini o'zbek xalqining tarixidan, hayotidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Sharof Rashidov o'z xalqiga va Vataniga fidoyi farzand edi", degan so'zlari bitilgan.

Yosh avlod uchun bu jarayonlar shuni ko'rsatadiki, mehnat, qat'iyat va tashabbuskorlik bo'lsa, eng murakkab davrda ham rivojlanish mumkin. Menimcha, aynan shu jihat uni buyuk qilgan. Bu fazilatlar biz yoshlar uchun juda muhim — nimaga qo'l urmaylik, sidqidildan mehnat qilsak, albatta natija bo'ladi. Sh. Rashidov shaxsi — hurmat, sadoqat va insoniylik timsoli.

Ko'plab manbalar Sharof Rashidovni insoniy fazilatlari bilan ham eslaydi: kamtarligi, odamlar bilan samimiy muloqot qilishi, yoshlarni qo'llashi, ijodkor va ziyolilarga e'tibori uning chin insonligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ham, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan Sh. Rashidov xotirasining yuksak e'tirof etilishi — xalqimiz uning xizmatlarini doimo qadrlashini bildiradi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan adibning «Saylanma» kitobi, Sharof Rashidov hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan «Xalqimizning otashqalb farzandi» nomli xotira kitobi chop etiladi. Shuningdek, Sharof Rashidovning hayoti va ijtimoiy-ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 27 martdagi "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida Jizzax shahrida ushbu shaxsning memorial muzeyi tashkil qilindi. Shunday ulug' insonning hayoti bilan tanishish, uning faoliyatidan saboq olishni o'zim uchun katta baxt deb bilaman. Bu adabiyotlarni o'qish jarayonida Sh. Rashidov timsoli mening ko'z o'ngimda nafaqat tarixiy shaxs, balki vatanparvarlik, mehnatsevarlik va halollikning yorqin namunasi sifatida gavdalandi.

Xulosa

Sharof Rashidovning hayoti va faoliyati O'zbekiston tarixida nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish nuqtai nazaridan ham beqiyos ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, u o'z davrining murakkab siyosiy va ijtimoiy sharoitida xalq manfaati yo'lida doimiy va sidqidilona xizmat qilgan. Sh. Rashidov rahbar sifatida nafaqat o'z qarorlari bilan respublika iqtisodiyotini mustahkamladi, balki qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, madaniyat va ilm-fan sohalarida ham keng ko'lamlı islohotlarni

amalga oshirdi. Bu jarayonlar bugungi O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyot yo‘nalishlari uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Uning siyosiy faoliyati o‘ziga xos tamoyillar bilan ajralib turadi: mas’uliyatni birinchi o‘ringa qo‘yish, xalq bilan yaqin muloqot, halollik va adolatga sodiqlik. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, Rashidovning kadrlar siyosati, davlat boshqaruvidagi strategik yondashuvlari, qarorlarni tizimli va rejalashtirilgan tarzda qabul qilishi respublika ichki barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan. Shu jihatdan, u nafaqat siyosiy rahbar, balki o‘rnak rahbar sifatida yosh avlod uchun ham muhim model hisoblanadi.

Rashidovning madaniy va ilmiy sohalarga qo‘shgan hissasi ham alohida e’tiborga molik. U yangi maktablar, kutubxonalar, madaniyat saroylari, ilmiy markazlar va teatrlar qurilishiga alohida e’tibor bergan, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni oshirishga xizmat qilgan dasturlarni ilgari surgan. Bu jihatlar uning faqat siyosiy, balki ijtimoiy va ma’naviy merosini ham belgilaydi.

Shuningdek, Rashidovning shaxsiy fazilatlari — kamtarlik, mehnatsevarlik, xalq bilan samimiy muloqot, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va adolatga sodiqlik — uni nafaqat tarixiy, balki zamonaviy nuqtai nazardan ham oliyjanob shaxs sifatida qadrlanishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda uning faoliyati o‘rganilganda, biz yoshlar uchun chuqur saboq va ilhom manbai hosil bo‘ladi: vatanparvarlik, mas’uliyat, fidoyilik va bunyodkorlik hayotimizda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois, Sharof Rashidov hayoti va faoliyati bizga shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy rahbarlik nafaqat mansab va kuch bilan, balki halollik, mas’uliyat va xalqqa sadoqat bilan o‘lchanadi. U nafaqat o‘z davrining buyuk siyosiy arbobi, balki yosh avlod uchun beqiyos o‘rnakdir. Uning xizmatlari va merosi bugungi kunda ham tarixiy adolat bilan baholanadi, ilmiy tadqiqotlar va tarixiy manbalar orqali qadrlanishi davom etmoqda.

Shunday qilib, Sharof Rashidovning hayoti va faoliyati O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida mustahkam iz qoldirgan, uning shaxsiy fazilatlari va rahbarlik uslubi esa yosh avlod uchun haqiqiy o‘rnak sifatida xizmat qiladi. Bu jihatlar Rashidov merosini nafaqat tarixiy, balki zamonaviy va amaliy nuqtai nazardan ham dolzarb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Xudoyberganova P. T., o‘g‘li Mahmudaliev S. S. **Xalq ma’rifati uchun kurashgan jadidchilar** // *International Sciences, Education and New Learning Technologies*. – 2024. – T. 1. – № 6. – B. 83–86.

2 Xudoybergenova P. T. **Milliy qadriyatlarimiz taraqqiyotining asosiy omili** // *Golden Brain*. – 2024. – T. 2. – № 19. – B. 178–181.

3 Xudaybergenova P. **O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni tashkil etishning strategik yo‘nalishlari va istiqbollari** // *Molodye uchenye*. – 2025. – T. 3. – № 14. – B. 100–103.

Xudaybergenova P. T. **Uzbekistan: Ethno Cultural Identity and Tolerance Under Conditions of Globalization** // *Sotsiosfera*. – 2013. – № 4-2. – B. 52–54.

4 Xudoybergenova P. **O‘zbekiston SSRning tashkil topishi: dis.** – “*Akademik K. A. Zufarovning 100 yilligiga bag‘ishlangan yosh olimlar kuni*” Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2025.

